TILSHUNOSLIKDA SIYQASI CHIQQAN IBORALAR (KLISHELAR)

Raimova Shahzoda Ilhomovna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: ***V.Samadova***

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Amaliy ingliz tili kafedrasi katta o'qituvchisi

visolasamadova5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada klishe tushunchasining lingvistik mohiyati, asosiy belgilari va nutqdagi qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Klishe muayyan nutqiy vaziyatlarda takroran qo‘llanadigan, tayyor va nisbatan barqaror ifoda qolipi sifatida izohlanadi. Maqolada klishelarning rasmiy, ilmiy va publitsistik uslublardagi qo‘llanishi hamda ularning nutqni standartlashtirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, klishe va frazeologik birlik o‘rtasidagi farqlar yoritiladi.

Abstract. This article analyzes the linguistic essence, main features, and functional characteristics of cliches in speech. A cliche is defined as a ready-made and relatively stable expression pattern that is repeatedly used in specific speech situations. The article examines the use of cliches in formal, scientific, and journalistic styles, as well as their role in standardizing speech. Furthermore, the differences between a cliche and a phraseological unit are highlighted.

Kalit so‘zlar: klishe, nutq qolipi, tayyor ifoda, barqaror birlik, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, frazeologizm.

Keywords: cliche, speech pattern, ready-made expression, stable unit, formal style, scientific style, journalistic style, phraseologism.

Kirish. Til insonlar o’rtasidagi aloqa va fikr almashishning asosiy vositasidir. Inson o’z fikrini ifodalash jarayonida ba’zan so’zlarni mustaqil biriktirsa, ayrim hollarda jamiyatda avvaldan shakllangan tayyor ifodalardan foydalanadi. Ana shunday tayyor va takroriy nutq birliklaridan biri klishe hisoblanadi. Klishelar nutqni tez va tushunarli shaklda tuzishga yordam beradi. Ayniqsa, rasmiy hujjatlar, ilmiy matnlar, yangiliklar va ommaviy axborot vositalarida ma’lum mazmunni qisqa hamda odatiy shaklda yetkazish uchun ulardan foydalaniladi. Shu bilan birga, klishelarning me’yoridan ortiq qo‘llanishi matnning individualligini kamaytirib, uni bir xil va qolipli ko‘rinishga olib kelishi mumkin. Klishe tushunchasi “Klishe” atamasi fransuz tilidagi “cliché” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab bosmaxona ishida tayyor bosma qolip ma’nosini anglatgan. Keyinchalik bu atama tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ko‘chma ma’noda ham qo‘llanila boshlagan. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan klishe — muayyan vaziyatlarda qayta-qayta ishlatiladigan, shakli nisbatan barqaror bo‘lgan tayyor nutq ifodasidir. Klishelar matnni shakllantirishga xizmat qiladigan standart tuzilmalar, o‘ziga xos nutq bloklari hisoblanadi. Masalan, rasmiy uslubda “yuqoridagilarni inobatga olgan holda”, “qaror qabul qilindi”, “ma’lum qilamiz” kabi ifodalar ko‘p uchraydi. Bunday birikmalar alohida vaziyat uchun yangidan yaratilmaydi, balki nutq amaliyotida shakllangan tayyor qolip sifatida qo‘llanadi. Klishelarning asosiy xususiyatlari. Klishelarni boshqa til birliklaridan ajratib turadigan bir necha xususiyat mavjud. Klishe boshqa nutq birliklaridan ushbu belgilari bilan farqlanadi: Takroriylik — kliche bir xil yoki o‘xshash nutqiy vaziyatlarda qayta-qayta qo‘llanadi. Tayyorlik — so‘zlovchi fikrni ifodalashda kliche tuzilmasini yangidan yaratmaydi, balki mavjud tayyor ifodadan foydalanadi. Barqarorlik — kliche tarkibi va tuzilishi nisbatan o‘zgarmas bo‘ladi. Masalan, “qaror qabul qilindi”, “ma’lum qilamiz” kabi birikmalar odatiy shaklda ishlatiladi. Vaziyatga bog‘liqlik — klishe ma’lum nutqiy sharoit yoki uslubda qo‘llanadi. Masalan, “Sizga shuni ma’lum qilamizki...” rasmiy muloqotga xos. Standartlik — klishe muayyan mazmunni umumqabul qilingan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Uslubiy xoslik — klishelar rasmiy, ilmiy, publitsistik kabi uslublarda ko‘proq uchraydi.

Klishelarning qo‘llanish sohalari. Klishelardan eng ko‘p foydalaniladigan sohalardan biri rasmiy uslubdir. Ariza, bayonnoma, ma’lumotnoma, qaror va boshqa hujjatlarda fikrni standart shaklda ifodalash zarur bo‘lganligi sababli tayyor nutq qoliplaridan foydalaniladi.

Masalan:

“Sizga shuni ma’lum qilamizki...”

“Yuqoridagilarni hisobga olgan holda...”

“Mazkur masala yuzasidan...”

“Qaror qilindi...”

Ilmiy uslubda ham ma’lum klishelar uchraydi. Masalan, “tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki”, “ushbu maqolada ... masalasi yoritiladi”, “olib borilgan tahlil natijasida” kabi ifodalar ilmiy matnlarda keng ishlatiladi. Ommaviy axborot vositalarida esa klishelar xabarni tez va ixcham yetkazish vazifasini bajaradi. Yangiliklar matnida muayyan voqealarni ifodalash uchun takroriy konstruksiyalardan foydalanish bunga misol bo‘la oladi.

Klishe va frazeologik birliklarning farqi. Klishelar erkin so‘z birikmalari bilan frazeologizmlar o‘rtasidagi oraliq birliklardir. Klishe va frazeologik birliklar tashqi ko‘rinishidan o‘xshash bo‘lishi mumkin, chunki ikkalasi ham tayyor holda qo‘llanadigan til birliklaridir. Ammo ularning vazifasi va ma’no xususiyati bilan farqlanadi.

Masalan, “ma’lum qilamiz” — ma’lum axborotni standart shaklda yetkazuvchi kliche. “Ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi” esa insonning xursand bo‘lganini obrazli tarzda bildiruvchi frazeologik birlik. Demak, asosiy farq shundaki: klishe tayyor va standart nutq qolipi bo‘lsa, frazeologik birlik barqaror va ko‘pincha ko‘chma ma’noli ibora hisoblanadi. Klishe uchun standartlik va vaziyatga moslik, frazeologizm uchun esa yaxlit ma’no va obrazlilik muhimdir.

Xulosa. Klishe tilning tabiiy va muhim hodisalaridan biri bo‘lib, u insonlarning turli vaziyatlarda fikrni tez, aniq va odatiy shaklda ifodalashiga xizmat qiladi. Rasmiy, ilmiy va publitsistik uslublarda klichelarning o‘ziga xos amaliy ahamiyati mavjud. Shu bilan birga, kliche va ijodiy nutq o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir. Tayyor nutq qoliplari zarur vaziyatlarda samarali vosita bo‘lsa-da, ularni o‘rinsiz va ortiqcha qo‘llash matnning ta’sirchanligini kamaytirishi mumkin. Demak, klishelardan to‘g‘ri foydalanish nutqning maqsadi, uslubi va mazmuniga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Burunskiy V. M. Клише: языковые характеристики, функционирование и типология. — Kursk, 2009.

2.Hozirgi o‘zbek adabiy tili bo‘yicha tilshunoslikka oid darslik va qo‘llanmalar.

3.Mirsadikova Sh. Sinxron va ketma-ket tarjimada klishe tushunchasi.

4.Nutq madaniyati va uslubiyatga oid ilmiy manbalar.

5.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.